Yadro magnit rezonansi spektrometri ishga tushirildi

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yil 24-may kuni O’zbekiston Milliy universitetida ilm-fan sohasi vakillari bilan bo’lib o’tgan uchrashuvida berilgan topshirig’i asosida O’zbekiston Fanlar akademiyasi O’simlik moddalari kimyosi institutiga Yaponiyadan JNM-ECZ600R 600 MGts (Megagerts)li yangi Yadro magnit rezonansi spektrometri va JNM-ECZ400R konsoli olib kelindi.



Hozirgi vaqtda ushbu uskunalar O’zR FA O’simlik moddalari kimyosi institutining Fizikaviy tadqiqot usullari laboratoriyasiga o’rnatildi va ishga tushirildi.

Ishchi chastotasi 600 MGts bo’lgan mazkur Yadro magnit rezonansi spektrometri nafaqat respublikamizda, balki O’rta Osiyoda yagona hisoblanadi.

YaMR spektrometrida olingan spektral ma’lumotlar organik kimyo, farmatsevtika, tibbiy kimyo, kimyo va oziq-ovqat sanoati hamda o’simliklarni himoya qilish vositalarini ishlab chiqish sohalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda kimyoviy molekulalarning tuzilishini va stereokimyosini tadqiq qilishda, istiqbolli biologik faol birikmalarni aniqlashda va ularning kimyoviy modifikatsiyalarini, transformatsiyalarini va sintez mahsulotlarini ham sifat ham miqdor jihatidan tadqiq qilishda, “tuzilish-faollik” bog’liqlikni o’rganishda, shuningdek, dori vositalarini o’zaro va biologik nishonlar bilan ta’sirlashish mexanizmlari hamda metabolizm mexanizmlari, ularning ishlab chiqarilishini nazorat qilish va preparatlarning standart namunalarini tayyorlash uchun ahamiyatli.





Yangi organik birikmalarning zamonaviy YaMR spektrlari natijalari asosida impakt faktori yuqori bo’lgan nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda ilmiy maqolalarni nashr etish, birinchi marta olingan birikmalar (jumladan, dori vositalari) uchun farmatsevtika ilmiy-texnik hujjatlari va patentlarini rasmiylashtirish ishlari olib boriladi.